



TIIAME

OYBEKNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI. BOLALIK" QISSASIDAN PARCHA.



Fan- O'zbek tili

O'qituvchi- Mamarajabova Iroda Fayzullayevna




TILAME



Reja:

1. Oybek ijodi
2. “Bolalik” qissasi
3. Topshiriqlar





TIIAME

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida bo‘zchi oilasida dunyoga kelgan. Shoир dastlab eski maktabda, so‘ngra «Namuna» maktabida, Navoiy nomidagi ta’lim va tarbiya texnikumida o‘qidi.





TIIAME

Oybek yoshligini eslab shunday yozgandi: «Yop-yorug‘ oydin kechada uyimizning yassi tomida onam bilan turardim; to‘lishgan oy osmon bo‘ylab suzardi, u menga juda ham go‘zal ko‘rinardi. Men unga qo‘llarimni cho‘zib intilar va «oyi, oyni olib bering», – deb xarxasha qilardim. Bo‘lg‘usi adibning bu so‘zlari kuchli ramziy ma’noga ega.





TIIAME

Oybek hayotda «Adabiyot osmonida oy» darajasiga ko‘tarildi. O‘rta Osiyo davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o‘qidi. So‘ngra Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomidagi xalq xo‘jaligi institutida o‘qib kelgan. Oybek O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida rais, O‘zbekiston Fanlar akademiyasida gumanitar bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida faoliyat yuritdi.





TIIAME

She'riy to'plamlari	Hikoyalari
«Tuyg‘ular»	«Musicha»
«Ko‘ngil naylari»	«Fonarchi ota»
Romanlari	
«Navoiy»	
«Quyosh qoraymas»	



TILAME


LUG'AT

bo'zchi	ткач
Xalq-xo'jalik instituti	институт народного хозяйство
Yozuvchilar uyushmasi raisi	председатель союза писателей
O'zbekiston xalq yozuvchisi	народный писатель Узбекистана




TIIAME

Bolalik (qissadan parcha)



Turg‘un ikkovimiz shoshilib bozor
tomon yuguramiz. Soat o‘n bir o‘n ikki,
qirq tiyin pulni belboqqa qattiq tugib
olganman. Egnimda uzun yaxtak,
boshimda yangi do‘ppi, oyoq yalangman.
Havo bulut, quyosh dam yalt etib bir
ko‘rinib qoladi, dam bulutlar ichiga
bekinib oladi. – Kitob juda ham
qimmat... – Meni alday boshlaydi
Turg‘un. – Olamiz bir mazali narsa.... .



– Yo‘q-yo‘q! – deyman darrov
uning niyatini payqab. –
Kitob yaxshi narsa. Hali qarab
tur, unda har bir ajoyib baytlar
borki, tushunmaysan, e, qo‘y-
yey. – bir zum sukutdan keyin
davom etaman: – marojniy
shirin narsa-yu, lekin
oyimdan qo‘rqaman, pulni
Karom opam kitobga bergen.



TIIAME



TIIAME

Tortisha-tortisha bozorga yetamiz. Bozor qizg‘in. Aravalar, otlar, xachirlar, eshaklar tiqilinch. Nonvoylar serob. Birining boshida savat, birining qo‘lida savat: «jizza non yumshoqqina, barragina...» deya qichqira-qichqira bozor oralab yuradilar. Turg‘un ikkovimiz ot-aravalar orasidan suqulib, kitob do‘konlariga yetamiz. Kitob rastasi sokin. Ahyon-ahyonda uzun, keng yaktakda kir sallali, soqollari o‘sgan, oriqqina, rangpar biror mullavachchaning kitob varaqlab turgani ko‘rinadi. Jimjit go‘yo butun kitobfurushlar mudroqda deysiz.



Lug‘at

orasidan suqilib – просовываться между

kitob do‘kon – книжный магазин

rasta – ряд лавок, торговый ряд

ajoyib – удивительный

varaqlamoq – листать

belbog‘ – пояс

jimjit – совершенно тихий

tanga – монета

оуоqyalang – босой

bayoz – сборник стихов





Uyga vazifa.



Oybekning «Bolalik» qissasini o‘qing va gapirib
bering.





E'tiboringiz uchun rahmat!